

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



"KIRITDI"

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
rektori

2026-yil



"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi

hadja bos

2026-yil

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA "TARIX"
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil " " dagi _____ - sonli buyrug' i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
"Jahon tarixi" kafedrası mudiri, t.f.d.,
dotsent B.B.Xaynazarov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
"Jahon tarixi" kafedrası prof. v.b., t.f.d., dots. A.Xollıyev

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tarix fakulteti
"O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti, t.f.n. R. Siddiqov

TDTU "O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti M.Inatov

KIRISH

Tarix fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" fanlari asosida tuzilgan bo'lib, "Qadimgi dunyo tarixi", "O'rta asrlar tarixi", "Yangi tarix", "Eng yangi tarix" davrlaridan abiturientlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Tarix fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abiturientlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelejkdagi tarix ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetensiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan va abiturientlarning tarix ta'lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Tarix fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi O'zbekiston tarixi, ikkinchi qismi esa jahon tarixiga bag'ishlangan. Dastur ko'zi ojit abiturientlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan. O'zbekiston tarixi qismida asosan xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha besib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, eng yangi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish, mamlakatimizning demokratlashitirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o'rin olganki, ushbu mavzular abiturientlar bilimini baholashda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek dasturning ikkinchi jahon tarixi qismida jahon tarixining qadimgi davri, o'rta asrlar tarixi hamda buyuk geografik kashfiyotlar, Yangi davrda Yevropa va Amerika mamlakatlari, Yangi davrda Osiyo va Afrika mamlakatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Rossiya kabi davlatlarning zamonaviy tarixi, I va II jahon urushlari va uning oqibatlari, II jahon urushidan keyingi Yevropa, Osiyo, Amerika davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida so'z yuritiladi.

Ushbu dastur ko'zi ojit abiturientlar uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abiturientlarning tarix fanlari bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Tarix fanidan imtihon topshiruvchi abiturientlar O'zbekiston tarixidan: O'zbekiston tarixini o'rganishdagi asosiy nazariy metodologik masalalar. Markaziy Osiyo ibtidoiy jamiyat davrida. Urug'chilik jamoalarining makonlari. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Qadimgi Sug'diyona (So'g'd), Baqtriya, Xorazm, "Avesto". Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniylarga qarshi mustaqillik uchun kurashi. Makedoniyalik Aleksandr istilosi va Spitamen qo'zg'oloni. O'rta Osiyo Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya davlati tarkibida. Qang. Parkana. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va uning roli. Kushon podsholigi. Ilk o'rta asrlar davlatlarining shakllanishi (Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi). O'rta Osiyo xalqlarining arablar istilosiga qarshi kurashi. Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Movarounnahr Somoniylar davrida. G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlari. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Qoraxoniylar bosqini va Xorazmshoh-anushteginlar davlatining

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-ustubiy Kengashining 2026-yil 23-apreldagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

yuksalishi. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi xususiyatlar. O'ra Osiyoda uyg'onish davrida fan va madaniyat. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining kurashi. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida. Amir Temur davlati. Movarounnahr Temuriylar davrida. Shayboniylar va Ashixoniyalar davlatlari. XVII-XIX asr birinchi yarmida siyosiy hayot. O'ra Osiyo xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi, aholining etnik va ijtimoiy tarkibi, xo'jaligi. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining rivojlanish xususiyatlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoq va boshqa turkiy ko'chmanchi qabilalar yozma tarixi manbalarida. Qoraqalpoqlarning shakllanish jarayonlari. XVIII-XIX asrlarda quyi Sirdaryo qoraqalpoqlari. Qoraqalpoq madaniyati. O'ra Osiyo xonliklarining savdo-diplomatik aloqalari. XVI-XIX asr birinchi yarmida O'ra Osiyo xalqlari madaniyati. Ingliz-rus raqobati. O'ra Osiyoga Rossiya imperiyasining istilochilik yurishlari. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. O'ra Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. 1873-1876-yillarda Qo'qon xonligidagi xalq qo'zg'oloni. Turkistonning agrar va sanoat rivojlanishidagi muammolar va Rossiya imperiyasi siyosati. XIX asr oxirida Turkistonda milliy ozodlik kurashlari. XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkiston xalqlari madaniyati. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Milliy ma'rifatparvarlik harakati. Jadidchilik. Turkiston birinchi jahon urushiyillarida. 1916-yil milliy ozodlik kurashi. 1917-yil siyosiy jarayonlarning Turkistonga ko'rsatgan ta'siri. Turkistonda sovet tuzumini o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 1917-1924-yillarda Buxoro va Xiva xonligidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. 1924-yil O'ra Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishidagi muammo va ziddiyatlar. O'zbekiston totalitar tuzum sharoitida - ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Siyosiy qatag'onlar va ularning oqibati. Qoraqalpoq'iston ASSRning O'zSSR tarkibiga kiritilishi. O'zbekiston xalqining fashizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. 1946-1985-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish; yutuqlar va ziddiyatlar. Milliy ziyolilarni qatag'on qilinishi. Madaniy hayotda "sotsialistik realizm"ni hukmronligi. O'zbekiston "Qayta qurish"-yillarida. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi - O'zbekiston tarixidagi yangi tarixiy bosqich. O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va mustaqilligi. O'zbekistonda mustaqil demokratik davlat sifatida siyosiy tuzumning shakllanishi. O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqil Qoraqalpoq'iston tarixi, uning davlat tuzumi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishga qaratilgan siyosat. Iqtisodiy islohotlar: bosqichlari va natijalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va uni bartaraf qilishga qaratilgan 2009-2012-yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirilishi. O'zbekistonning ma'naviy hayoti. O'zbekistonning jahonda va MDHda egallagan mavqei. Mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari. Mustaqil O'zbekiston-demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi yo'lida.

Abituriyent Jahon tarixidan: Qadimgi Misr. Eng qadimgi Misrda dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Misming geografik o'ri va tabiiy sharoiti. Misrda ilk podshohlikning tashkil topishi (mil. avv. 3100 y.). Qadimgi podshohlik davrida Misr. Piramidalar qurilishi. Yangi podshohlik davrida Misr. Exnaton islohotlari. So'nggi podshohlik davrida Misr. Qadimgi Misr madaniyati. Eng qadimgi Mesopotamiya. Mesopotamiyaning geografik o'ri va tabiiy sharoitlari. Mesopotamiyada markazlashgan shahar-davlatlarning vujudga kelishi. Sargon I davrida Mesopotamiya. Qadimgi Bobil podshohligi. Hamurappi qonunlari (mil. avv. 1792-1750-yillar). Qadimgi Ossuriya. Yangi

Bobil podshohligi. Qadimgi Mesopotamiya xalqlari madaniyati. Qadimgi Hett podshohligi va uning madaniyati. Qadimgi Falastin va uning yahudiylar tomonidan istilo qilinishi. Isroil yahudiy podshohligining ravnaq topishi. Qadimgi Suriya va Finikiya. Suriya va Finikiyaning shahar davlatlari. Qadimgi Urartu davlatining tashkil topishi va kuchayishi. Qadimgi Eron. Qadimgi Elam davlati va Midiya podshohligi. Doro I va uning islohotlari. Qadimgi Hindiston. Iskandarning Hindistonga yurishlari. Maurya saltanati. Kushonlar va Gupta davrida Hindiston. Qadimgi Hindistonda din. Eng qadimgi Xitoy. Xitoyning geografik o'ri va tabiiati. Chjou pojs'holigi davrida Xitoy. Buyuk Xitoy devorining qurilishi. Xunmlar davlati. Yunonistonning eng qadimgi tarixi. Krit Miken madaniyati. mil.avv.VIII-XI asr Yunoniston polislarining tashkil topishi. Afina quldorlik davlatining tashkil topishi. Solon qonunlari. Qadimgi Sparta davlati. Ilotlar qo'zg'oloni. Yunoniston Eron urushlari. Marafon jangi (mil. avv. 490-yil). Salomin jangi (mil. avv. 480 yil). Afina quldorlik demokratiyasi. Perikl boshqaruvi. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Rim. Qadimgi Rimning geografik o'ri va tabiiy sharoiti. Etrusklar jamiyati. Rim respublikasining tashkil topishi. Plebeylar va patrisiylar o'rtasidagi kurash. Rim tomonidan Italiyaning istilo qilinishi. Karfagen davlati. Puni urushlari va uning oqibatlari. Mil.avv. II asrda Rim imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, Spartak qo'zg'oloni. Rim saltanatining tashkil topishi. Yuliy Sezar imperatorligi. Rim imperiyasining tushkunlikka ketishi va halokati. Qadimgi Rim-Italiya madaniyati. Ilk o'ra asrlar. V-XI asrlarda Yevropa. German qabilalari va Rim imperiyasi. Franklar. Xlodvig hukmronligi. Buyuk Karl imperiyasi. VI-XI asrlarda slavyanlar. Slavyan davlatlarining tashkil topishi. Bolgar podshohligi (VII asr oxiri). Kiyevo Rusi (IX asr). Chexiya (X asr) va Polsha davlatlarining tashkil topishi. Ilk o'ra asrlarda Vizaniya imperiyasi. Vizaniyada maorif va ilm-fan taraqqiyoti. VI-X asrlarda Osiyo xalqlari. Ilk o'ra asrlarda Xitoy va Hindiston. O'ra asrlarning ikkinchi davrida jahon xalqlari (XI-XV asrlar). Cherkov va Salib yurishlari. Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi. Yuz yillik urush (1337-1453-yillar). Jakariya qo'zg'oloni (1358 yil). Fransuz xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi. Janna D'ark - xalq qahramoni. Angliyada markazlashgan davlatining tashkil topishi. Uott Tayler qo'zg'oloni (1381 yil). O'ra asrlarda Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari. XII-XV asrlarda Xitoyning ichki va tashqi siyosati. Min sulolasining tashkil topishi. O'ra asrlarda Afrika davlatlari: Gana, Mali, Songai, Aksum. O'ra asrlarda Amerika. Mayya xalqlari va ularning madaniyati. Atsteklar davlati. Inklar davlati.

XV asr oxiri XVI asrlardagi ihtirolar, buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik bosqinlari. Amerikaning kashf etilishi. Dunyo aylana birinchi sayohat. Fernan Magellan (1519-1522-yillar). Yevropada reformatsiyaning boshlanishi. Chexiyada umumxalq kurashining etilishi. Germaniyada reformatsiya. Martin Lyuter ta'limoti. Fransiyada mutloq monarxiyaning shakllanishi va diniy urushlar (XVIII asr). Niderlandiya burjuva inqilobi. Gollandiya respublikasining tashkil topishi. O'ra asrlarning uchinchi davrida Evropa xalqlari madaniyati. Uyg'onish davri madaniyati (Italiya). Leonardo da Vinchi, Mikolanjelo va Rafael. Germaniya, Niderlandiya va Ispaniyalik buyuk rassomlar.

XVII asr ingliz inqilobi. 1640 yilgi inqilob sabablari va boshlanishi. Angliya respublikasi. Kromvel protektorati. Styuartlarning qayta tiklanishi va 1688-yil to'ntarishi. Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash (1775-1783) va AQSHning tashkil topishi. AQSH Konstitutsiyasining qabul qilinishi (1787). XVIII asr Fransuz inqilobi. Monarxiyaning ag'darilishi. Yakobinchilar diktaturasi. Napoleon Bonapart diktaturasining o'rnatilishi va Fransiyadagi Birinchi imperiya. Napoleon I armiyasining Rossiyada barbot bo'lishi. Vena kongressi. «Muqaddas itifoq»ning tuzilishi. Yevropa davlatlari. Fransiya, Angliya, Germaniya, Italiya va Avstriya imperiyasidagi 1848-1849-yillar inqilobi hamda

uning ahamiyati. Osiyo mamlakatlari – Hindiston va Xitoyda hamda Afrikada milliy-ozodlik harakatlari.

XIX asming oxiri va XX asming boshlarida Yevropa va Amerika davlatlari, Fransiya-Prussiya urushi va uning yakunlari, Germaniyani birlashtirilishi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti, 1871-yilgi Imperiya Konsituatsiyasi, XX asr boshlarida AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, T. Ruzveltning ichki siyosati, Panamerika ittifoqi (1910 yil), V. Vilson hukumatining ichki va tashqi siyosati, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Braziliya, Argentina va Markaziy Amerika davlatlari, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya, Rus-Yapon urushi, XIX asming oxiri va XX asr boshlarida Osiyo va Afrika mamlakatlari – Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Turkiya, Arab mamlakatlari, Mahdiylar qo'zg'oloni va Sudanning Angliya tomonidan egallanishi.

Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari (1914-1918-yillar), Versal tinchlik shartnomasi (1919-yil, 28-iyun), Yevropa va AQSH birinchi jahon urushidan keyin (1918-1929-yil), 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, Sharqiy Evropa va Bolqon yarim oroli ikkinchi jahon urushi orasida (1918-1939-yillar), Ikkinchi jahon urushi (1939-1945-yillar), Ikkinchi jahon urushining 1941-1944-yillaridagi asosiy janglari, Ikkinchi jahon urushining tugashi, Potsdam konferensiyasi (1945-yil, iyul-avgust), Dunyo "Sovuq urush" siyosati davrida, Yevropaning birlashuvi, "Trumen diktaturasi" (1947 yil), "Marshal rejasi" (1947-yil, iyun), Shimoliy Atlantika shartnomasi (NATO) 1949-yil, aprel), O'LYOK (1949 yil), Varshava shartnomasi (1955-yil, 14-may) tashkilotlari, XX asming ikkinchi yarmida AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Sharqiy Yevropa va Bolqon yarim oroli mamlakatlari ikkinchi jahon urushidan so'ng, Totalitar tuzumlarning qaror topishi, SSSR: totalitarizmdan demokratiyaga, Qayta qurish va uning natijalari.

Osiyo davlatlari, Turkiya: demokratiyaning murakkab yo'li, Xitoy 1950-1990-yillarda, Vetnam xalqining ozodlik kurashlari, Ikkiga bo'lingan Koreya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston davlatlarining murakkab rivojlanish yo'llari, Yaqin Sharq mamlakatlari va ularning mustaqillik yo'llari.

1990-2026-yillarda jahon mamlakatlarning integratsiyalashuvi jarayonlari, Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi, Xalqaro munosabatlar, Xalqaro tashkilotlar, Xalqaro terrorizm va g'iyohvandlikka qarshi kurash, Markaziy Osiyoda integratsiyalashuv jarayonlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

KASBIY (IJODIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ko'zi o'jizlar uchun ijodiy imtihon 5 baholik tizimda baholanadi.

Ko'zi o'jizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtaidan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a" lo")ga baholanishi uchun:

- Abituriyent tarixning qadimgi davridan to hozirgi kun tarixigacha bo'lgan bosqichni mukammal bilishi lozim;
- Har bir tarixiy voqealar aniq tarixiy dalillarga asoslanishi kerak;
- Javoblarda tarixiy voqealar bo'lib o'tgan jo'g'rofiy hudud ham aniq ifodalinishi zarur;
- Javoblarda keraksiz har xil gaplardan ko'ra, ko'proq aniq faktlar hisobga olinadi;

- Mustaqillik davri tarixiga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, madaniyatiga, iqtisodiga, huquqiga tegishli savollarga yanada aniqroq javob berilishi kerak;

- Qo'shimcha savollarga ham to'liq va to'g'ri javob berish lozim.

2. Abituriyentning javobi 4 («axsh»)ga baholanishi uchun:

- Tarixning hamma bosqichlari bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lishi va uni dadil izohlay olishi lozim;

- Tarixni arxeologik va etnografik materiallar bilan qo'shib asoslay olishi kerak;

- Tarixiy davrlashtirish bosqichlarini aniq tushuntira olishi lozim;

- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining eng yangi tarixi (1991-2020-yillar) bilan bog'liq voqealariga aniq javob bera olishi kerak;

- Biror-bir tarixiy davrga tegishli berilgan qo'shimcha savolga aniq va puxta javob berilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 («o'rt»)ga baholanishi uchun:

- Abituriyent belgilangan savollarga maqtat tarix fani dasturi bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lib, javoblarni har tamonlama asoslanishga harakat qilishi kerak;

- Javoblarda har bir tarixiy davr fakt, manbalar, arxeologik materiallarga asoslanishi lozim;

- Javob berayotganda bo'lib o'tgan har bir tarixiy voqealarga aniqlik kiritilishi kerak, umumiy gaplar yoki taxminiy javoblardan uzoqroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqarsiz")ga baholanadi:

- Abituriyent tarixiy taraqqiyotining qadimgi davridan to hozirgi kumimizgacha bo'lgan tariximizni asoslay olmasa;

- Tarixiy davrlashtirish bosqichlaridan, davrlashtirish tarixidan etarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa;

- Tarixiy voqealarni aniqligiga ishonchsizlik bilan javob bersa;

- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining yangi tarixiga tegishli tarixiy voqealarni ifoda etuvchi javoblari maqsadga muvofiq deb topilmasa;

- Tarixiy mavzular bo'yicha berilgan qo'shimcha savollarga mujmalik va noaniqlik bilan javob berilsa.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Tarix fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Tarix fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appellyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imithon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.